

MAKTAB, AKADEMIK LITSEYLARDA “GAP VA UNING TURLARI” MAVZUSI O’RGANILISHI

Zuxra Baratovna Salkinova

Jizzax davlat pedagogika universiteti magistranti

Annotatsiya: Maqolada gap va uning turlari mavzusining maktab, akademik litseylarda o'rganilishi, shuningdek, interfaol metodlar orqali darsni samaradorligini oshirish haqida so'z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *gap*, *gapning ifoda mqsadiga ko‘ra turlari*, *gapning tuzilishiga ko‘ra turlari*, *maktab*, *akademik litsey*, *metod*, “*Aqliy hujum*”, “*BBB*”, “*Insert*”, “*Tushunshalar tahlili*”, “*Ikki qismli kundalik*”, “*4+1*”(Bitta matn ya to‘rtta ustun), “*Domino*”, “*Nostandart test*”.

Mustaqillik sharofati tufayli ta’lim-tarbiyaga katta e’tibor berilmoqda. O’zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi qonuni 1989-yil 21-oktabrda qabul qilingach, o’zbek tili — davlat tiliga e’tibor kuchaydi. Ona tilimizning ijtimoiy mavqeyi kengaydi. O’zbek tilida to‘g’ri ifodali so‘zlash va yozish, ona tilimizning sofligi va boyligi to‘g’risida timmay g‘amxo‘rlik qilish, uning iste’mol doirasini kengaytirib borish davlatimiz fuqarolarining burchi sanaladi

Hozirgi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-9-sinflaridagi o'quvchilariga va akademik litseyning 3-bosqich talabalariga "Gap va uning turlari" mavzusi o'tiladi. Jumladan, 8-sinfda "Gapning ifoda maqsadi", "Gapning tuzilishiga ko'ra turlari", "Sodda gap. Gap bo'laklari", "Gapning uyushiq bo'laklari", "Ajratilgan bo'lakli gaplar"¹, 9-sinfda "Uyushiq va ajratilgan bo'laklar bo'yicha o'tilganlarni takrorlash", "Sodda va qo'shma gaplar"², akademik litseyning 3-kurs darsligida "Uyushiq bo'lakli gaplar", "Ajratilgan bo'lakli gaplar", "Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari. Darak gaplar va ularning uslubiy xususiyatlari", "Buyruq hamda istak gaplar", "So'roq gaplar va ularning uslubiy xususiyatlari", "Gaplarning his-hayajon ishtirokiga ko'ra turlari", "Sodda gaplarning tuzilishiga ko'ra turlari. Gap bo'laklarining tartibi", "Qo'shma gaplar"³ kabi mavzular berilgan.

Umumiy o'rta talim maktabining 8-sinf ona tili dasturida 102 soat ajratilgan. Shu sinfga "Gapning ifoda maqsadi" mavzusini o'rganishga 2 soat mo'ljallangan. Dastlab, 1-soat "Gapning ifoda maqsadi" mavzusida gapning ifoda maqsadiga ko'ra to'rt turga bo'linishi o'rganilsa, 2-soat "Mumtoz matn va lug'atlar bilan ishlash" mavzusida oldingi mavzu yana bir bor yodga olinib, mustahkamlanadi. Aynan shu mavzu akademik litseyning 3-bosqich talabalari uchun chiqarilgan darsligida ham bor bo'lib, bunda ushbu mavzu bir necha soatlarga mo'ljallanib, chuqurlashtirilib o'tiladi. Ya'ni, "Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari. Darak gaplar va ularning uslubiy xususiyatlari", "Buyruq hamda istak gaplar va

¹ Qodirov M., Ne'matov H., Abduraimova M., Sayfullayeva R., Mengliyev B. Umumiy o'rta talim maktabalarining 8-sinfi uchun darslik. — T.:Cho'lpox nomidagi nashriyot-matbaa ijod uyi, 2019.

² Mahmudov N.M., Nurmonov A., Sobirov A.Sh. Umumiy o'rta talim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. — T.:<< Tasvir >> nashriyot uyi, 2019.

³ Nurmonov A., Mahmudov N., Sobirov A., Yusupova A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Akademik litseylar va kasb-hunar kolleilarining 3-bosqich talabalari uchun darslik. — T.:<>JIL M ZIYO<>, 2010.

ularning uslubiy xususiyatlari”, “So’roq gaplar va ularning uslubiy xususiyatlari”, “Gaplarning his-hayajon ishtirokiga ko’ra turlari”⁴. 8-sinf ona tili darsligida va akademik litseyning 3-bosqich talabalari uchun chiqarilgan darsligida gapning ifoda maqsadiga ko’ra turlari quyidagicha izohlanib o’tilgan:

Nutqimizda gaplar quyidagi maqsadlardan biri uchun ishlataladi: 1) xabar berish; 2) so’rash, aniqlash; 3) buyurish, undash; 4) istak, xohish bildirish. Shu sababli gapning ifoda maqsadiga ko’ra darak gap, so’roq gap, buyruq gap, istak gap turlari ajratiladi⁵.

So’zlovchi nutq jarayonida turli xil maqsadlarni amalga oshiradi: o’ziga ma’lum bo’lgan axborotni boshqasiga yetkazish maqsadi, o’ziga ma’lum bo’lmagan axborotni boshqasidan so’rash maqsadi, ma’lum voqeа-hodisani amalga oshirishga tinglovchini da’vat etish maqsadi va boshqalar.

Ana shu maqsadlarni amalga oshishiga muvofiqlashgan gap shakllari (qoliplari) mavjud.

So’zlovchining maqsadiga xoslangan gap turlariga gapning ifoda maqsadiga ko’ra turlari deyiladi.

Ifoda maqsadiga ko’ra gaplar to’rt turga bo’linadi:

- 1) darak gaplar;
- 2) buyruq gaplar;
- 3) so’roq gaplar;
- 4) istak gaplar.

Kesimi aniqlik maylidagi fe’llardan, tasdiq yoki inkor ma’nosini bildiruvchi otlardan ifodalananib, biror voqeа-hodisa haqida xabar bildiruvchi gaplarga darak gaplar deyiladi.

Kesimi buyruq maylidagi fe’l bilan ifodalananib, buyruq-xitob ma’nolarini ifodalagan gaplarga buyruq gaplar deyiladi.

Kesimi shart maylidagi fe’llar bilan ifodalangan gaplar istak gaplar deyiladi.

So’roq olmoshlari, so’roq yuklamalari yoki so’roq ohangi yordamida ifodalananib, so’zlovchiga noma’lum bo’lgan voqeа-hodisa haqida axborot olish maqsadida qo’llaniluvchi gaplarga so’roq gaplar deyiladi⁶.

Bundan ko’rinib turibdiki, maktab darsligidagi qoidalar o’quvchilarning yoshi, bilimi, o’rganish qobiliyatiga ko’ra moslansa, akademik litsey darsligidagi qoidalar esa talabalarning bilimini yanada kengaytirishga, chuqurlashtirishga moslangan.

Biroq ushbu darsliklar qanchalik o’quvchilar va talabalar yosh toifasiga moslab chiqarilmasin, hamma o’quvchi yoki talabalar keltirilgan mavzuni birdek o’zlashtira olishmaydi. Bunga sabab ko’p hollarda o’quvchi, talabalarning o’rganilayotgan mavzuga nisbatan sustkashlik bilan yondashishi, darsga maqsadsiz kirishi, ayrim hollarda esa o’qituvchining dars vaqtini to’g’ri taqsimlay olmasligi va mavzuni yaxshi tushuntira olmasligi sabab bo’ladi. Bunday hollarning oldini olish uchun, avvalo, o’qituvchi darsga

⁴ Nurmonov A., Mahmudov N., Sobirov A., Yusupova A. Hozirgi o’zbek adabiy tili. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarining 3-bosqich talabalari uchun darslik. — T.:<<ILM ZIYO>>, 2010.

⁵ Qodirov M., Ne’matov H., Abduraimova M., Sayfullayeva R., Mengliyev B. Umumiyo’rta talim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. — T.:Cho’lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijod uyi, 2019.

⁶ Nurmonov A., Mahmudov N., Sobirov A., Yusupova A. Hozirgi o’zbek adabiy tili. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarining 3-bosqich talabalari uchun darslik. — T.:<<ILM ZIYO>>, 2010.

yaxshi tayyorgarlik ko'rib kelishi, vaqtini to'g'ri taqsimlay olishi kerak bo'ladi. Shuningdek, o'qituvchi o'quvchilarni darsga qiziqtirishi yoki mavzuni yaxshi tushunishlari uchun turli xil interfaol metod va grafik organayzerlarlar foydalanishi maqsadga muvofiq. Lekin, har doim ham o'qituvchi har bir darsini metod orqali o'tkazib bo'lmaydi. Chunki o'quvchilar keyinchalik "o'qituvchimiz yana metodlar orqali darsni o'tadi deb" mavzularga nisbatan sustkashlik bilan yondashadi. Faqat yaxshi pedagog o'qituvchigina har bir darsini qanday o'tish kerakligini va qaysi metodlarni qaysi dars uchun qo'llash kerakligini biladi. Buning uchun o'qituvchi dastlab, metod haqida tushunchaga ega bo'lishi kerak.

Metod – ayni. "biror narsaga borish yo'li", umumiy ma'noda maqsadga erishish usuli, muayyan tartibga solingan faoliyat.

O'qituvchi metod haqida tushuncha ega bo'lgach, mavzuga mos metodlar o'rganadi. Metodlarning ayrimlarini keltirib o'tamiz:

"Aqliy hujum" usuli

«Aqliy hujum» biror muammoni yechishda guruh qatnashchilari tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali m'lum bir yechimga kelinadigan eng samarali usuldir. U to'g'ri va ijodiy qo'llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandard fikrlashga o'rgatadi. "Aqliy hujum" yordamida turli xil muammolarni hal qilishning yo'llari izlanadi. Bu usul guruhning har bir a'zosi fikrini tezda yig'ish va umumlashtirish imkonini beradi. "Aqliy hujum"ni, o'quvchilar muammo haqida yetarli ma'lumotga ega bo'lmagan hollarda ham qo'llash mumkin. Bu kutilmagan, oddiy shiroitda aqlga kelmaydigan antiqa yechimlar topish imkonini beradi.

"Aqliy hujum" usulidan foydalanilganda, odatda mashg'ulot ikki bosqichdan iborat bo'ladi: birinchi bosqich - taklif bosqichi ("aqliy hujum"ning o'zi) va ikkinchi bosqich - tahlil hamda yechimlarni saralash bosqichi. Bosqichlar o'rtasida kichik tanaffus berilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Savol: Gap ifoda maqsadiga va tuzilishiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi. Ularni izohlab bering.

Javob: Gap ifoda maqsadiga ko'ra darak, so'roq, buyruq, istak; tuzilishiga ko'ra sodda va qo'shma gaplarga bo'linadi.

"Tushunchalar tahlili" metodi

"Tushunchalar tahlili" metodi o'quvchilar yoki qatnashchilarni mavzu bo'yicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashxis qilish maqsadida qo'llaniladi.

1	2	3
Tushunchalar	Izohi	Qo'shimcha ma'lumotlar
Darak gap	Borliqdagi voqeа - hodisa, narsalarni tasdiq yoki inkor yo'li bilan xabar qiluvchi gaplar darak gap deyiladi.	Darak gapning oxiriga nuqta qo'yiladi. Darak gapdagi xabar orzu-umid, ishonch, ta'kid, g'urur, maslahat, tashvish, sevinch, xabar, taajjub, gumon, achinish, tashvish, g'azab, norozilik, kinoya kabi ma'nolarni ifodalaydi.

So'roq gap	So'zlovchi uchun ma'lum bo'limgan voqeа, hodisa, harakat, holat haqidagi so'roqni ifoda qiluvchi gaplar so'roq gap deyiladi.	So'roq gapning oxiriga so'roq belgisi qo'yiladi. So'roq gap ikki turga bo'linadi: sof so'roq gap, ritorik so'roq gap.
Buyruq gap	So'zlovchining biror narsaga buyurishi, undashi, iltimos qilishi, maslahati kabi fikrlarni ifodalaydigan gap buyruq gap deyiladi.	Yozuvda buyruq gaplarning oxiriga ko'pincha undov belgisi, ohangiga qarab esa nuqta qo'yilishi mumkin.
Istak gap	Kesimi shart-istak maylidagi fe'llar bilan ifodalangan gaplar istak gaplar deyiladi.	Istak gapda suhbatsoshning voqelikka o'z istagi bildiriladi.

Express-testlar

Express-testlar ma'lum tushunchalar ketma-ketligidan so'ng (1-2 mavzu) shu mavzularda o'quvchilarning o'rgangan bilimlarini nazorat qilish va uni mustahkamlash uchun o'tkazish maqsadga muvofiq. Express-testlar odatda shu mavzularga oid 3-4 ta kichik va yengil mashg'ulot topshiriqlardan yoki testlardan iborat bo'ladi. Express-testlarni darsning ichida qisqa vaqtarda (5-10 min) o'tkazish mumkin. Topshiriqlar ko'p variantli tizimda kartochkalarda tarqatiladi. Bu testni o'tkazishdan asosiy maqsad o'quvchilar DTS minimal talablarini o'zlashtirganliklari tezkor ravishda aniqlab olishdan iborat.

O'quvchilarning o'zlashtirganlik darajalarini nazorat qilish va baholash topshiriqlarining namunalari turli xil manbalardan yig'ilgan bo'lib, ular haqida ma'lumotga ega bo'lish va amaliyotda qo'llash o'qituvchilar uchun foydadan holi bo'lmaydi.

Topshiriqlar quyidagi bandlardan iborat bo'lishi mumkin:

1. Bo'sh qoldirilgan joylarni zarur so'zlar bilan to'ldiring
2. Jumlaning ma'nosidan kelib chiqib, qavslar ichida keltirilgan so'zlardan mosini tanlang va tagiga chizing
3. To'g'ri javobni toping
4. Ikki tasdiqdan to'g'risini ajrating
5. Ta'rifdagi (jumladagi) xatoni toping
6. Quyida keltirilgan so'zlarning ma'nosidan kelib chiqib, mantiqiy juftliklarni tuzing
7. Matematik tushuncha va atamalar talqiniga ko'ra jumlanı davom ettiring
8. Quyida keltirilgan formulalar qaysi matematik tushuncha xossalariiga tegishli ekanligiga qarab, jufti-jufti bilan mos guruhlarga ajrating
9. A ustunda berilgan atamaga B ustundagi tegishli talqinni mos qo'ying
10. Andazaga ko'ra masala tuzing va uni yeching
11. Sonli yozma ish (diktant)

O'qituvchi o'quv taxtasiga bir nechta atamaning nomlarini yozib nomerlab chiqadi. So'ng esa, bu atamalarning (tushunchalarning) nomini aytmasdan ta'rifini ixtiyoriy tartibda o'qiysi. O'quvchilar esa bu atama (tushuncha) qaysi raqam ostida yozilganligini topishlari

so'raladi. Natijada 5, 6, 10, 1, 7, 2, 3, 12, 4, 9, 8 ko'rinishdagi sonli satrdan iborat javob hosil bo'ladi. .

12. Biror mavzuga oid masala yoki savol tuzish

Ikki tasdiqdan to'g'risini ajrating

1-tasdiq. Kesimi aniqlik maylidagi fe'llardan, tasdiq yoki inkor ma'nosini bildiruvchi otlardan ifodalanib, biror voqeа-hodisa haqida xabar bildiruvchi gaplarga darak gaplar deyiladi.

2-tasdiq: Kesimi buyruq maylidagi fe'llardan, tasdiq yoki inkor ma'nosini bildiruvchi otlardan ifodalanib, biror voqeа-hodisa haqida xabar bildiruvchi gaplarga darak gaplar deyiladi.

To'g'ri javob 1-tasdiq.

Ta'rifdagi (jumladagi) xatoni toping

Gap tarkibida ma'lum bo'lakning ma'nosini ta'kidlab, izohlab keluvchi, boshqa bo'laklardan to'xtam va ohang jihatidan ajralib turuvchi bo'laklarga ajratilgan bo'laklar, shunday bo'lakli gaplarga esa uyushiq bo'lakli gaplar deyiladi.

Tarifdagi xato: uyushiq bo'lakli gaplar emas ajratilgan bo'lakli gaplar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'qituvchi darsda qanday metodlardan foydalanishi pedagogik mahoratiga bog'liqdir. Shuningdek, maktab, akademik liteylarda "Gap va uning turlari" mavzusi o'tilganda o'qituvchi "Aqliy hujum", "BBB", "Insert", "Tushunshalar tahlili", "Ikki qismli kundalik", "4+1"(Bitta matn va to'rtta ustun), "Domino", "Nostandard test" kabi metodlarni qo'llasa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mahmudov N.M., Nurmonov A., Sobirov A.Sh. Umumiy o'rta talim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. — T.:«Tasvir» nashriyot uyi, 2019.
2. Nurmonov A., Mahmudov N., Sobirov A., Yusupova A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning 3-bosqich talabalari uchun darslik. — T.:«ILM ZIYO», 2010.
3. Qodirov M., Ne'matov H., Abduraimova M., Sayfullayeva R., Mengliyev B. Umumiy o'rta talim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. — T.:Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijod uyi, 2019.